

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston davlat
san’at va madaniyat
instituti rektori**



N.B. Sayfullayev

“17” avgust 2025-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“18” avgust 2025-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“17” avgust 2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

60211700-Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) ta’lim yo‘nalishi uchun

- 1. “Yakkaxon qo‘shiqchilik” fanidan**
- 2. “Raqs” fanidan**

Toshkent-2025

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2025-yil 30 may 10-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- | | |
|---------------|---|
| H.Xusanov | – O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası mudiri v.b. |
| B.Dusmuradov | – O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori |
| N.Abraykulova | – O'zDSMI "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri, professor v.b. |

Taqrizchilar:

- | | |
|------------|--|
| M.Ermatov | – O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori |
| K.Buriyeva | – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori |

Kirish

60211700 – Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) - bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, hujjatlarni qabul qilish "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

Fanning maqsadi va vazifasi

60211700 – Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) bakalavriat ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning yakkaxon qo'shiqchilik hamda raqs fanlaridan ijodiy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakkaxon qo'shiqchilik fani bo'yicha:

Yakkaxon qo'shiqchilik fanidan kirish imtihonida abituriyent 2 ta ashulani (xalq qo'shiqlari yoki bastakorlar asarlaridan) ijro etishi va shu asarlarning kuyini istalgan biror bir milliy cholg'usida ijro etishi, ushbu asarlarni tahlil qilishi va og'zaki savollarga javob berishi lozim.

Og'zaki savollar o'zbek an'anaviy xonandalik tarixi, mashhur ijrochilar ijodi, ijro etilgan asarlar mualliflarining ijodiy faoliyati, asarlarda uchraydigan ijrochilik talqini bilan bog'liq bo'ladi.

Abituriyent:

- yakkaxon qo'shiqchilik asoslari, ijro turlari va qoidalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- yakkaxon qo'shiqchilik ijrosida hududiy uslublardan foydalanishi;
- yakkaxon qo'shiqchilikda abituriyent ovozining sof jarangdorligidan unumli foydalana olishi;
- yakkaxon qo'shiqchilikda ovoz ko'lamini rivojlantirilganligi;
- yakkaxon qo'shiqchilikda o'zbek xalq musiqiy janrlaridan ijro ko'nikmalariga ega ekanligi.

Raqs fani bo'yicha

Raqs fanidan kirish imtihonida abituriyent 4 ta hududiy uslublar (Surxondaryo, Xorazm, Buxoro, Farg'ona)ga xos bo'lgan raqslardan o'zi istagan 1 ta raqsni milliy musiqa jo'rligida ijro etishi, ushbu ijro yuzasidan og'zaki savollarga javob berishi lozim.

- raqs abituriyentning ijrochilik bo'yicha mahoratini ko'rsata olishiga xizmat qilib, raqs maktablari harakatlarining farqini, rang-barangligini, to'g'ri ijro etilishini, mimikani namoyish etish imkoniyatini yarata olishi;

- o'zbek raqs maktabi namoyandalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

-raqs ijro etib bo‘lingandan keyin komissiyaning talabiga ko‘ra og‘zaki savollarga javob berishi talab etiladi.

Og‘zaki savollar o‘zbek raqs san‘ati tarixi, o‘zbek raqs maktablari, ularning farqi, milliy raqs ijrochilari ijodi, raqs san‘atiga hissa qo‘shgan buyuk ustoz sozandalar va bastakorlar, raqs ansamblari ijodiy faoliyati, raqslarda uchraydigan ijrochilik talqini bilan bog‘liq bo‘ladi.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Yakkaxon qo‘shiqchilik fanidan kirish imtihonida abituriyent 2 ta asarni (xalq qo‘shiqlari va bastakorlar asarlaridan) ijro etib beradi.

1. Xalq ashulalaridan 1 ta asar.

2. O‘zbek bastakorlari asarlaridan 1 ta asar.

Raqs fanidan kirish imtihonida abituriyent 1 ta raqsni ijro etib beradi.

1. Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo hududiy uslublarga xos bo‘lgan raqslardan 1 ta raqs.

Musiqiy asarlar abituriyentning ijrochilik bo‘yicha mahoratini ko‘rsata olishiga xizmat qilishi lozim.

Yakkaxon qo‘shiqchilik fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/R	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko‘rinishi, odobi va muomala madaniyati	5
2.	Ijro dasturining barcha talablar asosida tanlanganligi (xalq qo‘shiqlari yoki bastakorlar asarlaridan)	5
3.	Ijro mahoratiga	28
4.	Ijro jarayonida jo‘rnavoz bilan birgalikdagi uyg‘unlik	5
5.	Ijro etilgan asarlar mualliflari haqida ma‘lumot berish	5
6.	Ovozning tabiiyligi va shakllantirilganligining to‘g‘ri yo‘nalishda ekanligi (artikulyatsiya, nafas olish, ovozni ishlatish texnikasiga hos harakatlanishi)	10
7.	Ashula va raqs ansamblari haqida ma‘lumotga egaligi	5
8.	An‘anaviy qo‘shiqchilik san‘ati na‘munalari, ijrochilik maktablari va namoyandalari haqida ma‘lumotga egaligi	15
9.	Yakka va ko‘p ovozli musiqiy tovushlarni eshitishi va ritmni his qilish qobiliyatiga egaligi	15
Umumiy ball		93

Raqs fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	O'zbek raqs maktablari, bastakorlari va namoyandalari haqida ma'lumotga egaligi	15
2.	Erkin mavzuda raqs ijro etishi va musiqani his qilishi	20
3.	Ijro etilgan raqs harakatlari ifodaliligi va musiqiy ritmni his qilishi	10
4.	Ijro etilgan raqs liboslari va sahna madaniyati uchun	5
5.	Ijro mahorati va o'zbek raqs maktablarining harakatlaridan namunalar ijro etishi uchun	13
Umumiy ball		63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211700 – Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlarga jadval asosida belgilangan kunda ikki turdan iborat ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlardan iborat bo'lib, har bir abituriyentga o'z imkoniyatlarini namoyish qilishi uchun 30 daqiqadan 1 soatgacha vaqt ajratiladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiya hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Abituriyent apellyatsiya komissiyasiga faqat o'zi to'plagan ballari bo'yicha murojaat qilishi mumkin, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Y.Rajabiy. O'zbek maqomlari (Shashmaqom):–Toshkent, “Print-S” nashr. 2007-y.
2. O. Matyoqubov. Shashmaqom saboqlari:–Toshkent YUNESKO tamg'asi ostida 2007-y.
3. M.Xudoynazarov. An'anaviy ashulachilar ansambli:–Toshkent, 2005-y.
4. M.Xudoynazarov. An'anaviy yakkaxon qo'shiqchilik. O'zRFA bosmaxonasi:–Toshkent, 2006-y.

5. M.Xudoynazarov. An'anaviy ashulachilar ansambli. O'zRFA bosmaxonasi:– Toshkent, 2006-y.
6. R.Yunusov. Faxriddin Sodiqov. “Yangi asr avlodi” nashriyoti:–Toshkent, 2006-y.
7. N. Qosimov. O'zbekiston bastakorlari Rahmatjon Tursunov “Ijod dunyosi” nashriyoti:–Toshkent, 2003-y.
8. I. Rajabov. Maqomlar, “San'at” nashriyoti:– Toshkent, 2006-y.
9. R. Nosirov. Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi. “Fan” nashriyoti:–Toshkent, 2006-y.
10. R.Tursunov, S.Mannopov. An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubiyoti:– Toshkent, 2003-y.
11. I. G'aniyeva. Tanavorlar:–Toshkent, “Uzinkomsentr” nashriyoti 2003-y.
12. X. Lutfullayev. Qo'shiq va san'atkor:–Toshkent, 2005-y.
13. O. Matyoqubov. Maqomot. “Musika” nashriyoti:–Toshkent, 2004-y.
14. Q.Mamirov. Xalq qo'shiqchiligi:–Toshkent, 2006-y.
15. N.Abraykulova. Raqs:–Toshkent, 2019-y.
16. E.Saitova, N.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari:– Toshkent, 2015-y.
17. R.Dosmetova, N.Abraykulova. Raqs:–Toshkent, 2017-y.
18. N.Abraykulova. Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti:–Toshkent, 2003-y.